

SOLIQ SIYOSATI TAKTIKALARINI SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISH JIHATIDAN ISHLAB CHIQUISH YO'NALISHLARI

PhD Nasimov Ravshanjon Azimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotasiya. Maqolada soliq yuki ko'rsatkichining ahamiyati, O'zbekistonda iqtisodiy xatti-harakatlar va natijalarni shakllantirishda soliq siyosatining ahamiyatini ko'rsatadi. Ular yuqori soliq stavkalari, murakkab qoidalar va past soliq axloqi tadbirkorlik faolligi va rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lishi jihatdan o'rganilgan hamda ilmiy xulosa va takliflar shakllantirilib, soliq yukini hisoblash yo'nalishlari nazarda tutilgan. Biroq, soliq to'lovchilar davlat tovarlari va xizmatlarini moliyalashtirish uchun soliq tushumlaridan qanday foydalanish bo'yicha o'z afzalliklarini bildirganda, yuqori soliq yukini qabul qilishga tayyor.

Kalit so'zlar: soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq yuki, soliq stavkalari, byudjeti xarajatlari, resurs soliqlari, yer solig'i, mahalliy soliqlar, soliq, byudjet, soliq imtiyozlari.

Kirish. Keyingi yillarda aksariyat xorijiy davlatlarda milliy soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda byudjet hamda soliq to'lovchilarning moliyaviy uyg'unligini ta'minlash asosida soliq yukini optimal taqsimlash jarayonlariga keng urg'u berish bilan bir qatorda, bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini rag'batlantirish tendensiyasini kuchaytirib bormoqda. Bundan tashqari ko'pgina ilmiy markazlarda soliq yuki va uning iqtisodiyotga ta'sirini yalpi ichki mahsulot, narx, inflyatsiya, investitsiya, mehnat va ist'emol bozori bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarga keng ustuvorlik berib kelmoqda.

Soliq to'lovchilarga faqatgina soliq to'lash lozimligini uqtirish, soliq to'lamaganlik uchun moliyaviy jazo choralarini ko'rish bilan uning darajasini oshirib bo'lmasligini guvohi bo'ldik. Biz bu yerda bir narsani unutmadi, har qaysi olingan soliq to'lovchida

o'ziga xos "men"i bo'ladi, ya'ni bu tabiiy-ijtimoiy va psixologik haqiqat, ammo, ushbu "men" jamiyat manfaatlari bilan kesishuvi bo'lgandagina ijobiy natijaga erishish mumkin. Soliq yukining nomutanosibligi, soliqlarni undiruvchi organlar tomonidan soliq to'lovchilarga nisbatan munosabatning yetarli emasligi, eng muhimi ba'zi soliq turlari, masalan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi va sug'urta badallarining haddan ziyod yuqoriligi kabi iqtisodiy vositalar soliq madaniyatining subyektiv ravishda oshmasligiga xizmat qilib keldi.

Shu narsani unutmaslik kerakki, soliq madaniyatini oshiruvchi asosiy subyekt bu jismoniy shaxs sifatida soliq to'lovchilar hisoblanadi, aynan yuridik shaxs sifatidagi soliq to'lovchilarning faoliyatini ham aholining alohida guruhlarini yuritadi, demak, jismoniy shaxslarning soliq madaniyatini oshirishning iqtisodiy dastaklarini ishga solmas ekanmiz, yuridik shaxs sifatidagi soliq to'lovchilar madaniyatini oshirish borasida so'z yuritish biroz mushkul va mantiqiy jihatdan unchalik to'g'ri emas. 2019-yildan boshlab ish haqidan oldinadigan 30 foizgacha daromad solig'i o'rniga yagona 12 foizlik soliq turi kiritilishi va 8 foizlik sug'urta badali umuman bekor qilinishi shakl shubhasiz aholining soliq madaniyati oshishiga xizmat qildi, chunki, soliqlar ularning daromadining xarid qobiliyatini oshira boshladi, ortiqcha murakkab hisob-kitoblardan xalos etdi.

Aslini olganda soliq madaniyatini umumiy qilib aytganda, soliqlarni undirish jarayonida soliq to'lovchilarning soliqlarning obyektiv zarurligini to'liq anglab yetishi, ularning soliqlardan qochishi yoki to'lashdan bo'yin tovlashining o'zining taqdiriga salbiy ta'sir qilishini, soliqlar davlat ravnaqining moliyaviy asoslaridan biri ekanligi, soliqlarga farz sifatida qarash kabi holatlarning o'rni katta bo'lib, bu bevosita soliq to'lovchilarning psixologiyasi bilan bog'liq bo'lib, u esa soliq madaniyatining darajasini bildiradi.

Aholining davlat oldidagi ijtimoiy qarzlari bilan birga soliqlar borasidagi qarzlarning muhimligini anglab yetishi ularning iqtisodiy madaniyatining darajasini belgilovchi asosiy mezoni hisoblanadi. Soliqlarni to'lamaslik, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, soliq to'lovchi sifatida ro'yxatda turmaslik va boshqa shu kabi soliq

huquqbuzarlik hamda soliqqa oid jinoyatlar esa soliqning huquqiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq holda bo'lishini bildiradi.

Bir tomondan davlat tomonidan oqilona soliq siyosatining tashkil etilishi, bu hali bunday manfaatlarni uyg'unlantira olmaydi, buning uchun soliq to'lovchilarda yuqori darajadagi soliq madaniyati shakllanishi lozim bo'ladi. Soliq siyosatida soliq imtiyozlari va preferensiyalarni berish bilan birga soliq to'lovchilar tomonidan bunday imtiyoz va preferensiyalardan o'rinli foydalangandagina bunday yengilliklar samara beradi, aks holda esa budjet manfaatlariga putur yetadi.

Bugungi kunda respublikamiz soliq tizimida soliq yukiga ta'sir etuvchi omillarning yetarlicha baholanmasligi va uning metodologiyasi takomillashmaganligi ham bu boradagi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Soliq yukini optimal holatini tahlil qilishda real ko'rsatkichlarga asoslangan metodologiya to'laqonli samarali deb aytishga asos mavjud emas. Ilmiy tadqiqotlarda soliq yukini aniqlashni makro va mikro darajada amalga oshirish lozimligini ilmiy asoslashga harakat qilingan bo'lsada (masalan, Sh.Turayev, I.Niyazmetov) ammo, soliq yukini tahlil qilish ko'rsatkichlaridan uslubiy jihatdan samarali foydalanish yo'llari hali ko'rsatib berilmagan.

Shundan kelib chiqqan holda biz tizimida soliq yukiga ta'sir etuvchi omillarni baholashning mualliflik yondashuvimizni ilmiy asoslashga harakat qilamiz. Bizga ma'lumki, soliq yuki tahlilida asosiy ko'rsatkichlar sifatida makro darajada YAIM va soliq tushumlari ko'rsatkichlari, mikro darajada esa, yalpi tushum (daromad) va to'langan soliqlar ko'rsatkichiga asoslanadi. Bizningcha, bunday yondashuv soliq yukini tahlil qilishda obyektiv ilmiy xulosalar chiqarishga imkon bermaydi. Shundan kelib chiqqan holda soliq yukini tahlil qilishda quyidagi uslubiyatga asoslanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Makro darajadagi soliq yuki bo'yicha: Asosiy ko'rsatkich bo'lgan YAIMni nominal qiymatlarda emas balki, taqqoslama narxlarda olish, soliq tushumlari ko'rsatkichlarini olishda esa, boshqa soliqlar jumlasiga kiruvchi jarimalar va bojxona bojlari hamda davlat mulkini sotish (ijaraga berish)dan tushgan tushumlarni alohida tahlil


qilish, moliyaviy instrumentlar sirasiga kiruvchi narx, inflyatsiya kabilarning ta'sirini hisoblash, fors-major holatlarning soliq yukiga ta'sirini e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mikro darajadagi soliq yuki bo'yicha: asosiy ko'rsatkichlar (yalpi tushum, jami daromad, soliq to'lovi) bilan bir qatorda mahsulot narxiga ta'sir etuvchi omillar (material va xom ashyoning narxi o'zgarishi, energiya sarfi narxi kabi)ning o'zgarishi, kreditorlik qarzining oshib ketishi hisobiga soliq tushumiga ta'siri, soliq qonunchiligi bo'yicha berilgan soliq imtiyozlaridan samarali foydalanganlik, soliq qarzdorligi va uning hisobiga to'langan moliyaviy jarimalar, soliq to'lovchi uchun kontragent soliq to'lovchilar hisobiga qo'shimcha yuzaga kelgan soliq yuki summasi, narx va inflyatsiya omili, fors-major holat kabi omillar va ko'rsatkichlarga ham asoslanish lozim bo'ladi.

Dunyo amaliyotida amalga oshirilib kelinayotgan tahlillarda soliq yukini o'rganish odatda soliq to'lovlarining daromad yoki boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarga nisbatini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotlar soliqlarning aholi va tadbirkorlik subyektlarining pul oqimlariga qanchalik ta'sir qilishini baholash imkonini beradi. Bundan tashqari soliqlar jamiyatdagi daromadlar tengligi va qashshoqlikka qanday tenglik va qashshoqlikka ta'sirini tahlil qilish, soliq yukining kambag'allikni qisqartirish (yoki oshirish) ta'siriga oid ilmiy tahlillarga keng urg'u berilmoqdaki, ularni amalga oshirish tahlil nazariyasining turlicha usullaridan keng foydalaniladi. Yuqoridagi yondashuvdan kelib chiqqan holda soliq yukini optimal baholashni amalga oshirish uchun keng ma'nodagi "Soliq yukini optimal tahlil qilish uslubi"ni ishlab chiqishga ehtiyoj tug'iladi va uni amalga oshirishda quyidagilarga asoslanish lozim degan ilmiy g'oya ilgari suriladi.

Biz tomonimizdan keltirilayotgan ushbu uslubiyat makro va mikro darajada soliq yukini tahlil qilishda muhim uslubiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu uslubiyatning asosiy mohiyati shundan iboratki, bunda soliq yuki tahlili makro va mikro darajada amalga oshirilib, uning xulosalari o'zaro integarsiyalashgan holda shakllantiriladi.

Soliq yukiga ta'sir etuvchi omillarni mazmunan va shaklan bog'liqlikda ikki guruhga ajratgan (soliq siyosatidagi o'zgarishlar, iqtisodiy o'sish va soliq ma'murchiligi bilan bog'liq bo'lmagan omillar va soliq ma'murchiligi bilan bog'liq omillarning) ta'siri tahlil qilingan holda ilmiy xulosalar olishga xizmat qiladi, shuningdek, uslubiyatga ko'ra, tahlil jarayonida qaysi tadqiqot (tahlil) usullaridan foydalanish lozimligi hamda xulosalar chiqarishning turlari ko'rsatib berilgan.



1-rasm. Soliq yukini optimal tahlil qilish uslubiyati¹

Umumiy qilib aytganda soliq yukini optimal tahlil qilish uslubiyati soliq tizimida makro va mikro darajada soliq yukini optimallashtirishga qaratilgan davlatning soliq siyosatida tegishli qarorlar qabul qilish va ilmiy xulosalar tayyorlashda metodologik asos sifatida soliq yukini optimallashtirishning ilmiy-amaliy yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari fikrimizcha, soliq yukini optimalligini aniqlash bilan bog'liq tahlillarni amalga oshirishda quyidagilarga ham alohida e'tibor berish lozim deb hisoblaymiz:

1-guruh: Soliq yukining iqtisodiy o'sishga ta'siri.

Bunda: *soliq yuki va biznesning raqobatbardoshligi*-yukining yuqori darajasi biznesning raqobatbardoshligi va investitsiyalarga qanday ta'sir qilishi;

mehnat taklifi va soliq yuki - mikroiqtisodiy tahlil - daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta stavkalari va boshqa omillarning mehnat faoliyatiga ta'sirini, soliq yukidagi o'zgarishlar shaxslarning mehnat va dam olish haqidagi qarorlariga qanday ta'sir qilishi;

soliq islohoti va iqtisodiy o'sish - mamlakat/mintaqaning empirik tahlili - soliq tizimi islohotlarining iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ta'siri tahlili, investitsiyalar, innovatsiyalar va boshqa jihatlarga ta'siri tahlili;

soliq yuki va migratsiya tahlili - soliq yuki odamlar va kompaniyalarning bir mamlakat yoki mintaqadan boshqasiga ko'chib o'tish qarorlariga qanday ta'sir qilishi;

soliq yukining taqsimlanishi va tengsizlik - soliq yukining turli aholi guruhlari bo'yicha qanday taqsimlanishi va bu daromad darajasi va tengsizlikka qanday ta'sir qilishi;

mamlakatlar bo'ylab soliq tizimlarining qiyosiy tahlili - iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy tenglik nuqtayi nazaridan ularning kuchli va zaif tomonlarini baholashi va shu kabilar.

2-guruh: Yalpi ichki mahsulot (YAIM) va soliq yuki o'rtasidagi bog'liqlik.

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bunda:

solliq yukining YAIMga ta'siri – yuqori, normal va past solliq yukining belgilanishi va bozor qoidalariga ko'ra, ularning solliq to'lovchilarga nisbatan taqsimlanishi, shuningdek, solliq yuki darajasining YAIMni rag'batlantirishi yoki kamayishiga olib keluvchi omillarning o'zaro ta'siri tahlili;

solliq yuki va investitsiyalarning o'zaro bog'liqlik tahlili – milliy, hududiy va alohida olingan solliq to'lovchilarga jalb qilingan investitsiyalarning solliq bazasiga ta'siri orqali solliq yukiga ijobiy ta'sirini tahlil qilish, bunda investitsiyalarning turlari doirasidagi jalb qilingan kapital hajmining mahsulot realizatsiyasini oshishiga ta'sir qilishi natijasida solliq tushumlarining ko'payishini tahlil qilish;

solliq elastikligi va YaIM o'zaro bog'liqligi tahlili – YAIM va solliqlarning egiluvchanligi o'rtasidagi korrelatsion bog'liqlik orqali solliq yukining oshishiga yoki kamayishiga ta'siri tahlil qilinadi.

3-guruh: Narxlar va solliq yuki o'rtasidagi bog'liqlik solliqlarning tovarlar va xizmatlar narxlariga ta'siri

mahsulot tannarxi va solliq yuki o'rtasidagi bog'liqlik - solliq to'lovchilar tomonidan mahsulot tannarxiga olib boriladigan xarajatlar dinamikasining solliq to'lovchining solliq yukiga ta'siri tahlili;

material va xom-ashyoning narxi o'zgarishi tahlili - mahsulot ishlab chiqarish jarayonida material xarajatlarining narxi orqali solliq tushumlariga ta'sirini tahlil qilish va shu kabilar.

Ta'kidlash lozimki, solliq yuki investitsiyalar va innovatsiyalarga ta'sir qilishi mumkin. Daromad yoki kapital qo'yilmalarga nisbatan yuqori solliqlar kompaniyalarning rivojlanishga sarmoya kiritish rag'batlarini kamaytirishi va umumiy ishlab chiqarishni kamaytirishi mumkin, bu esa narxlarga ta'sir qiladi, narxlar va solliq yuki o'rtasidagi munosabatlar murakkab bo'lib, bir qancha omillarga bog'liq. Solliq yuki, ya'ni fuqarolar va korxonalar tomonidan to'lanadigan solliqlarning umumiy miqdori tovarlar va xizmatlar

narxiga to'g'ridan-to'g'ri soliqlar va narxlar, bilvosita soliqlar va narxlar: soliq yuki va narxlarning o'zgarishi tarzida yuz beradi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliq yuki tushunchasi umumiy tushuncha sifatida soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlarning qiymatini ifodalaydi, ammo uni tushuntirishda uning tarmoqlar, hududlar, korxonalar, aholi darajasiga qarab, quyi darajadagi soliq yukining xususiyatlarini bilishga intilish orqali umumiy soliq yukining mazmunini yanada chuqurroq anglanash va shu tartibda quyi darajadagi soliqqa oid jarayonlardan uning umumiy xulosalar chiqarishga intilish masalasini yanada oydinlashtiradi.

Адабиётлар/Литература/Референсе:

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: Г'афур Г'улом нашриёт уйи 2020.- 640 б.
2. Насимов Р.А. “Солиқ юкини оптималлаштириш йўллари” (phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Тошкент, 2024.